

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASINING BUXORO AMIRLIGIGA TEGISHLI HUDUDLARIDA HUNARMANDCHILIK VA SAVDO -SOTIQ**Jurayeva Nargiza***Navoiy Davlat Pedagogika**Instituti magistranti*

Zarafshon vohasining quyi qismida, ya'ni Buxoro amirligining markaziy boshqaruvi ostida bo'lgan Buxoro, G'ijduvon, Vobkent, Pirmast, Xo'ja Orif (Shofirkon), Romitan va Zarafshon (Shimoliy va janubiy Rud) tumanlari⁴² hamda qorako'l, Karmana va Ziyovuddin hududlarida ham aholi nisbatan zich yashagan.

Quyi Zarafshon vohsi aholisining ko'pchilik qismini tashkil etuvchi o'zbek va tojiklar, turkiy va eroniy tillarda so'zlashuvchi qabila hamda xalqlarning o'zaro etnik va ma'daniy aloqalari asrlar davomida shakllanib borgan 1924-yili O'rta Osiyoda o'tkazilgan tadqiqotlar tufayli voha va uning atroflarida yashovchi aholining soni, etnik tarkibi to'g'risidagi dastlabki mufassil ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, quyi Zarafshon vohasining umumiy maydoni 2832 kv.km.ni tashkil qilib, aholisi 359118 nafardan iborat bo'lgan. Qorako'l hududining maydoni 712 kv.km, aholisi 24765 kishi, Karmana hududining maydoni (Qarnab cho'lidan tashqari) 3253 kv.km, aholisi 82990 kishidan iborat ekanligi ham qayd etilgan. Voha aholisining asosiy qismi (86,8%) qishloq joylarida yashagan. Etnik tarkibiga ko'ra o'zbeklar (284 753 nafar), tojiklar (39044 nafar), arablar(31541 nafar) va turkmanlar (12 773 nafar) ko'pchilikni tashkil qilgan.

XX asr boshlarida ham aholining turli urug'larga bo'linishi bilan ajralib turgan. Masalan, Shofirkon hududida yashagan kishilar 14 urug' aymoqlarga bo'lingan bo'lsa, Vobkent aholisi 26, Romitan aholisi 15, Qorako'l aholisi 32, G'ijduvon aholisi 38, Karmana aholisi 33 va Buxoro atrofida (Galaosiyoda) yashagan aholi 38 urug' va etnik guruhlarga mansub bo'lgan. Aholini ro'yxatga olinishi natijalariga ko'ra, urug' qabilaga bo'linmagan holda yashovchi o'zbeklar orasida chig'atoylar ancha kamchilikni tashkil qilgan. Xususan, Buxoro atroflaridagi vohada 230 nafar, Shofirkon atrofidagi Sultonrabort arig' bo'ylarida va Galaosiyoda hududida Shohrud arig'i bo'ylarida 210 nafar chig'atoylar istiqomat qilishgan. Qorako'lda esa 565 kishi o'zlarini chig'atoy urug'iga mansub deb hisoblashgan. Bir paytlar dashti qipchoqdan ko'chib kelgan o'zbeklarning avlodlari quyi Zarafshon

vohasida anchagina nufuzga ega bo'lishgan. Ular orasida alohida mavqega ega bo'lgan mang'itlar (44ming nafar) vohaning shimoliy va shimoliy – sharqiy tarafidagi Shofirkon, G'ijduvon va Romiton hududlarida qo'nim topgan edi. Shuningdek, Qorako'l vohasida ham 8 ming mang'it ro'yxatga olingan. Mirza Badi Devon ma'lumotlariga ko'ra, mang'itlarning o'zlari ham qismlarga bo'lingan. Masalan qora, oq, ko'k kabilarga ajratilgan.

XVI asr boshlariga vohaga kelib o'rnashgan qo'ng'irotlar Buxoro va Qorako'l hududlarida ham ko'p sonli urug'lardan (jami 13875 nafar) hisoblangan. Shuningdek, G'ijdivonning shimolidagi Qizilqum bilan chegaradosh aholi punktlari va Shofirkonda (5245nafar), Sultonrabot arig'i (2370 nafar) hamda Vobkent daryo bo'ylarida (2160 nafar) ham qo'ng'irotlar istiqomat qilishgan. Saroy urug'i ham o'zbek urug'larida yetakchi o'rinlardan birini egallagan. Ushbu urug' vakillari ham vohaning turli hududlari bo'ylab sochilib yashagan. Saroylarning ko'pchiligi Xarxonrud arig'i bo'ylarida 17945 nafar, shu jumladan, G'ijdivon hududida 7095 nafar, Vobkentda 4165 nafar, shohrud arig'i bo'ylarida 3575 nafar va Sultonobod arig'i bo'ylarida 1310 nafar, qisman Pirmast arig'i bo'ylarida (G'ijdivon hududida), Abu Muslimda (Kogon va Qiziltepa hududlarida) hamda Poykent (Qorako'l hududida) tarqalgan edi.

Qatag'on urug'i vakillari (jami 7315 nafar) ham asosan vohaning shimoliy va shimoliy- g'arbiy qismidagi Sultonobod (1680nafar), Pirmast (1070 nafar), Harxonrud (995) va G'ijdivon hududidagi boshqa mayda ariqlar bo'ylarida (2100 nafar) yashaganlar. Qatag'onlarning bir tarmog'i bo'lmish olchinlar esa Buxoro shahri va uning atroflarida , asosan Harxonrud va Mozarongan ariqlari bo'ylarida(1775 nafar), Karmana vohasidagi Kasaba va Qalqonota ariqlari bo'ylarida(750 nafar) joylashganlar, Jaloir (1820 kishi) , Kenagas(2725 nafar) kishi va Bahrin (1390) singari oz sonli o'zbek urug'lari ham XX asr boshlriga qadar o'zbek va tojik tillarida so'zlashuvchi mahalliy xalqlar bilan o'zaro chatishib ketgan, Shuningdek, butun quyi Zarafshon vohasi bo'yicha 16140 nafar metis nomi bilan ataluvchi aralashgan etnik guruhlar vakillari ham ro'yxatga olingan bo'ib ular asosan Buxoro atroflarida, Kogon va Qiziltepa hududlarida istiqomat qilishgan .

Vohaning shimoliy va qisman markaziy qismlarida kelib chiqishi dashti qipchoqdan bo'lgan boshqa o'zbek urug'larini ham uchratish mumkun edi. Jumladan naymanlar (5000nafar) minglar (1413 nafar) qirqlar va yuzlar (9 185 nafar) shular jumlasidandir. Qipchoqlarning jami 9935 nafar ko'pchiligi Shohrud (4970 nafar) Vobkent daryo (2105 nafar) va Shofirkon(1700nafar) ariqlari havzasida ozchilik qismi esa vohaning janubiy

hududlarida tarqoq holda yashaganlar. Vohaning g'arb tarafidagi Xayrobod havzasida 2170 nafar do'rmonlar hayot kechirishgan. Ushbu urug' vakillari Karmana (1565 nafar) va Qorako'l (1765 nafar) hududlarida ham tarqalgan edi.

Zarafshon vohasining quyi qismida yashagan aholining so'zlashuvi borasida filiologik tadqiqot olib brogan M. Mirzayev, 1926- yilgi rayonlashtirish ma'lumotlariga tayanib hududning etnografik xaritasini tuzishga harakat qilgan. M.Mirzayev ma'lumotlariga ko'ra vohaning quyi qismi aholisi shevalariga qarab 4 guruhga bo'lingan: 1. Qarluq- chigil- uyg'ur lahjasida so'zlashuvchi o'zbek guruhlari; 2. O'g'uz lahjasida so'zlashuvchi o'zbeklar; 3.qipchoq lahjasida so'zlashuvchi o'zbeklar; 4. O'zbek(qarluq- chigil- uyg'ur lahjasida)va tojik tilida so'zlashuvchi 2 tilli guruhlar.

O'g'uz lahjasida asosan Qorako'l,Olot tumanlarida va Romiton tumanining ba'zi qishloqlarida ,ya'ni Sepota, Qorali,Vobkenda Chandir qishlog'ida, Buxoro atrofidagi Xargush, Xumin, Xumdonak qishloqlarida yashagan aholi so'zlashgan. Bu lahjada so'zlashuvchi o'zbek urug'larini asosan olot , bayot, jig'achi, darg'ali,qoravul, sayot, salir, ersari, chandir, eski, tamjik, burjik, kabi urug'lar tashkil etgan. Qipchoq lahjasida Karmananing ba'zi qishloqlarida so'zlashishgan. O'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi aholi esa o'zlarini kelib chiqishini mang'it, urganji, nayman urug'laridan deb hisoblashgan.

Bu davrlarda vohadagi ayrim mahalliy qishloqlar aholisi yagona urug'ga mansub bo'lgan kishilardan tashkil topganligi bilan harakterlanadi. Shunday qilib XIX asr ikkinchi yarmida Zarafshon vohasida murakkab etnodemografik jarayonlar sodir bo'ldi. Birinchidan, aholining soni keskin oshdi, ikkinchidan kam sonli etnik guruhlar qisman o'zbeklar tarkibiga singib bordilar, uchinchidan bu davrda rusiyzabon aholi vakillarining kirib kelishi kuzatiladi. Natijada Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi tobora rang barang tus oldi.

Zarafshon vohasining tabiiy, jug'rofiy va iqlimiy sharoiti aholining nafaqat xo'jalik faoliyati va turmush tarsi, balki ko'p qirrali ma'naviy madaniyati va milliy ruhiyati xususiyatlarining shakllanishida muhim omil bo'lib keldi.